

## O‘ZBEK NAZARIY TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI

**Sharfova Nodira Sodiq qizi**

Guliston davlat universiteti, Talabasi

@bahodirovanazira@gmail.com

### ANNOTATSIYA

Maqolada XX asr o‘zbek nazariy tilshunosligi taraqqiyotini A.G‘ulomov ilmiy qarashlarisiz tasavvur etib bo‘lmasligi bayon qilingan. XX asrning 40-80-yillar o‘zbek milliy tilshunosligining ana shu vakili ilmiy merosi haqida imkon doirasida to‘liq ma‘lumot berishga, jiddiy ilmiy qarashlariga, ularga nisbatan bildirilgan mulohazalarga munosabat bildirishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik tahlil, tasnif usuli, sinxron-formal tasnif, morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika.

## DEVELOPMENT OF UZBEK THEORETICAL LINGUISTICS

**Sharfova Nodira Sodiq qizi**

Gulistan State University, Student

@bahodirovanazira@gmail.com

### ABSTRACT

The article is about the development of twentieth-century Uzbek theoretical linguistics is inconceivable without the scientific views of A. Gulomov. In the 40s and 80s of the twentieth century, efforts were made to provide as much information as about the current state of Uzbek national linguistics and to take their serious scientific views and opinions.

**Keywords:** linguistic analysis, classification, synchronous-formal classification, morphology, syntax, lexicon, stylistics.

### KIRISH

Milliy taraqqiyot milliy til mavqei va nufuzi yuksalishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi-milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”[1]. Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar o‘zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko‘tarish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab- avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat

qaratishi tabiiydir”[2]. Shu ma’noda o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo‘nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining ilk sahifasi sifatida tarixda qolgan XX asr boshlaridagi tilshunoslik merosini tadqiq etish milliy manfaatlarimizni ta‘minlash, ma‘naviy qadriyatlarimizni tiklash ishlarida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida bu davr tili va tilshunosligi keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Turkogogiyada, jumladan, o‘zbek tilshunosligining rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlarmiz, tilning barcha qirralarini ochib bergan, jahon tilshunosligi qatoriga qo‘shishga muyassar bo‘lgan. Biroq tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullangan jonkuyarlarning ilmiy asarlarini o‘rganish masalasi tizimli yoritilgan emas.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

XX asrning boshlarida shakllana boshlagan o‘zbek nazariy tilshunosligi bugungi kunga kelib, zamonaviy tilshunoslikning tarkibiy qismiga aylandi. Umumturkiy tilshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy manba bo‘lgan M.Qoshg‘ariy, A.Navoiy, Zamaxshariy, Abu Xayyon kabi zabardast olimlar ilmiy ishlarini eslamalik mumkin emas. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi haqida fikr bildirilganda esa Fitrat, Elbek, G‘ozi Olim Yunusov, Ashurali Zohiriy, Abdulla Avloniy, Shorasul Zunnun kabi til ilmining nazariy rivojiga ma‘lum darajada hissa qo‘shgan ko‘plab o‘zbek fidoyi olimlar bilan bir qatorda E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, N.Kononov, V.V.Reshetov, S.N.Ivanov kabi rus olimlarining nomlarini ham tilga olib o‘tish zarur. XX asrning 20-30-yillarida ijod qilgan o‘zbek adiblarining badiiy, ilmiy va publitsistik asarlarini tadqiq qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bunga M.Qurbonova, B.To‘ychiboev, M.Yo‘ldoshev, Yo.Sayidov, F.Bobojonov, D.Ne‘matova, T.Tog‘aev, Z.Chorieva, L.Jalolova va boshqalarning ishlarini ko‘rsatish mumkin[4,5,8,9,10]. Mustaqillik yillariga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zbek tilshunosligiga hissa qo‘shgan olimlarda ilmiy asarlari o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim ishlar qilingan. b Tilshunosligimizning ilmiy-nazariy tadqiqot ob‘ekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolar XX asrning 30-yillaridan boshlab jiddiy o‘rganila boshlandi. Aynan shu davrda o‘zbek tilshunosligida rus olimlari A.N.Kononov, S.E.Malov K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.Reshetov kabi yirik tilshunoslar bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligida o‘z maktabini yaratgan olim A.G‘ulomov iste‘dodli tilshunoslar F.Abdullaev, T.Ibrohimov, A.Ibrohimov, S.Usmonov, F.Kamolov, T.Salimov, U.Tursunov, E.Fozilovlar qatorida edi. Olim o‘zbek tili grammatik qurilishi tizimini yaratish maqsadida jahon lingvistik tahlil va tasnif usulini asosiy mezon sifatida belgilab, o‘z qarashlarini sinxron-formal tasnif metodi vositasida yaratdi. Olimning ishlariga sinchkovlik bilan e‘tibor qaratilsa, o‘zbek ilmiy tilshunosligi taraqqiyotida ham sistem struktur, ham substantsional tilshunoslikning haqiqiy asoschilaridan ekanligiga amin bo‘lamiz. Sinxron-formal tasnif metodi XX asrning 40-80 yillariga qadar o‘zbek tilshunosligida yetakchilik qilganligiga qaramay, 70-yillardan boshlab Sh.Shoabdurahmonov, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, O.Usmonov, A.Rustamov, M.Mirzaev, F.Ubaeva, A.Xojiev, M.Mirtojiev, I.Qo‘chqortoev kabi va ulardan keyingi bir qator etakchi olimlar ishlarida kuzatildi.

## NATIJALAR

O‘zbek tilshunosligidagi yechimini topmayotgan muammolar xususida olimlarimiz tunu kun izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, tilshunos olimlaridan biri B.To‘ychiboev o‘zining «O‘zbek nazariy tilshunosligi asoschisi yohud «Ayyubona tadqiq» xususida so‘z» maqolasida «...barcha fanlar kabi tilshunoslikka ham har bir davr o‘z talabini qo‘ygan. Shuning uchun tilshunoslik tarixini o‘z tarixi bilan bog‘lab kuzatish maqsadga muvofiqdir» - deb aytib o‘tgan. Masalaga shu nuqtai nazar bilan yondashadigan bo‘lsak, o‘tgan asrning qirqinchi yillaridan boshlab o‘zbek tilini nazariy jihatdan o‘rganish davr talabiga aylandi. O‘zbek tili ilmiy grammatikasining nazariy asoslarini yaratish uchun esa Sharq va G‘arb filologiyasining ilg‘or g‘oyalari bilan qurollangan, mumtoz til, xalq tili, xalq og‘zaki ijodi namunalari tili va adabiy tilning ichki imkoniyatlarini, shuningdek, taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur his qiluvchi hamda yaxshi biluvchi zabardast olim zarur edi», - deyar ekan, to‘la haqli edi[6]. «40-yillardan o‘zbek tili ilmiy jihatdan atroflicha, chuqur o‘rganila boshlandi. Tilshunoslikning tildagi har bir sath birliklarini o‘rganishga qaratilgan fonetika, morfemika, so‘z yasalishi, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi bo‘limlari shakllana boshladi. 1940-yilda bu davrni A.G‘ulom o‘zining «O‘zbek tilida aniqlovchilar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan boshlab berdi», -degan

fikri ayni haqiqatdir[6]. Olimning A.G‘ulomov haqida aytgan bu fikrlari ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan. XX asrning 40-80-yillari o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti haqidagi ishlarda, aynan shu fikrlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini ta‘kidlovchi dalillar bilan to‘qnashganmiz, haqiqatan ham, A.G‘ulomov o‘zbek nazariy tilshunosligining poydevorini qo‘ygan, favqulodda iste‘dodga ega bo‘lgan betakror tilshunos edi. O‘zbek nazariy tilshunosligining shakllanish davri haqida gap borar ekan, A.G‘ulomovdan bir yil keyin nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan prof.U.Tursunov ilmiy foaliyati haqida to‘xtalmaslik mumkin emas. A.G‘ulomov 1940-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo‘lsa, U.Tursunov, bir yildan keyin o‘z ilmiy ishini yakunlash bilan, o‘zbek nazariy tilshunosligining shakllana boshlanganligini to‘la namoyon etdi. Qizig‘i shundaki, A.G‘ulomov «O‘zbek tilida aniqlovchilar» monografiyasi bilan o‘zbek nazariy grammatikasining poydevorini qo‘ygan, oxir-oqibat yirik tilshunoslik ilmiy maktabini asoschisiga aylangan bo‘lsa, U.Tursunov yuqorida qayd etilgan tadqiqoti bilan o‘zbek nazariy tilshunosligi poydevorini mustahkamladi va Samarqand tilshunoslik ilmiy maktabining asoschisiga aylandi.

O‘zbek nazariy tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotiga, katta hissa qo‘shgan boshqa olimlar faoliyatiga to‘xtalishdan avval shuni alohida ta‘kidlamoqchimizki, arab tilshunosligi rivojiga hissa qo‘shgan, shu bilan birga umuman, jahon tilshunosligi taraqqiyotini ta‘minlagan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Qoshg‘ariy, Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Abubakr Sakkokiy, Yoqut Hamaviy, Abu Hayyon, Jaloliddin Abu Muhammad Abdulloh turkiy, Abu Mansur as-Saolibiy kabi ko‘pgina sharq olimlarining, shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus turkologlari: F.E.Korsh,



A.E.Krimskiy, M.A.Kazembek, N.I.Ilminskiy, V.A.Bogoroditskiy, N.I.Ashmarin, L.Z.Budagov, P.M.Melioranskiy, V.V.Radlov, S.E.Malov, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.N.Samoylovich kabi yirik olimlar va XX asrning 20- 30-yillarida tilshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borgan va yuqorida tilga olingan o'zbek olimlari, keyingi davr o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini belgilashda muhim o'rinni egallaydilar. O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanishida ularning ilmiy izlanishlari asosiy manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarsiz o'zbek tilshunosligining keyingi ilmiy bosqichini belgilash qiyin. Ma'lumki, o'zbek milliy, ilmiy tilshunosligining shakllanishini ana shu olimlarning izlanishlari, qarashlari ta'minladi. Bu tadqiqotlar: a) turkiy tilshunoslikning shakllanishi uchun bosh manba bo'lgan; b) o'zbek tilshunosligining alohida ajralib chiqishini ta'minlagan; v) o'zbek adabiy tili mavqeini belgilash uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan; g) milliy ilmiy tilshunoslikning shakllanishiga shart-sharoit yaratgan bo'lib, mazkur jarayonda bu olimlar hissasi juda katta bo'lgan.

## MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligi muammolari bilan shug'ullangan yigirma beshta fan doktori va yuzdan ortiq fan nomzodidan iborat ilmiy jamoa XX asrning 70-yillariga qadar shakllandi. Albatta, 70-80-yillar davomida ular soni yanada ko'paydi (1982- yilga qadar). Tilshunos fan nomzodlari soni 60 taga yaqin, fan doktorlari esa 70 tadan ortiqroq edi. 1982-yildan to istiqlolgacha bo'lgan davrda bu raqamlar o'zgarganligi ma'lum, ya'ni fan doktorlari soni 100 atrofida, fan nomzodlari esa 300 dan ortib ketdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shu vaqt oralig'ida yaratilgan tadqiqotlarning deyarli hammasi o'sha davr uchun eng dolzarb bo'lib, o'zbek tilshunosligi rivojida o'z o'rniga ega bo'lgan edi. O'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyotini belgilab berishni nazarda tutgan dolzarb muammolar edi. Zero, tadqiqotlarsiz, o'zbek tilshunosligining keyingi davr taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Albatta, bu davr tilshunosligining talabidan kelib chiqqan holda kamchiliklarini kuzatish mumkin. Ba'zan zamonasozlikka moyil bo'lgan, tazyiqlar ta'sirida ochiq aytilmagan, metodik jihatdan boshqacharoq tarzda bajarilgan, ijtimoiy tuzum barqarorligiga qat'iy ishonch bildirilgan tarzda yondashilgan va bir yoqlamaliklarga yo'l qo'yilgan holda tavsiflangan ishlar ham uchraydi. Bu hol, tilning leksik sathini tadqiq qilish borasidagi, terminologiyaga oid ishlar doirasidagi tadqiqotlarda kuzatiladi.

## XULOSA

O'zbek tilshunosligining XX asrning 40-80-yillarida prof.A.G'ulomov, S.Usmonov va boshqa yirik olimlarning jahon tilshunosligi, shu jumladan, rus tilshunosligidagi ilg'or qarashlar, yutuqlar asosida yaratilgan nazariy fikrlari, mulohazalari tayanch manba bo'lganligi hammaga ma'lum. Jahon tilshunosligining shu davr ruhi bilan sug'orilgan jiddiy nazariy fikrlari, ilmiy asoslangan qarashlari va meroslari allaqachon o'zbek xalqining qadriyatlarini qatoridan

mustahkam o‘rin egallagan. A.G‘ulomov deyarli barcha yutuqlaridan bahramand bo‘lgan, ilg‘or qarashlarga nisbatan o‘z bahosini bera oladigan, o‘zbek tilshunosligiga tatbiq etadigan darajada ekanligi bilan ajralib turardi. Bular merosini jiddiy tadqiq qilmay turib, ularga munosib bahoni bermay turib, o‘zbek ilmiy tilshunosligining keyingi istiqbolini belgilash maqsadga muvofiq emas. Zero, bu olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari zamonaviy ilmiy tilshunoslik taraqqiyotini belgilovchi asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Nomi yuqorida zikr etilgan olimlarning ilmiy me‘rosi, ma‘lumki, birinchidan, noyob manbalarga aylanib bo‘lgan; ikkinchidan, bu manbalar, ilmiy qarashlar hali jiddiy tadqiq etilmagan, to‘laligicha o‘quvchilarga yetkazilmagan; uchinchidan, sho‘rolar davri tilshunosligidagi barcha ilmiy-nazariy qarashlar, shu jumladan yetakchi, tan olingan olimlarning ilmiy merosi mustaqillik davri milliy ruhi nuqtai nazaridan mukammal baholanishi lozimligi, 40-80 yillardagi muhim ilmiy qarashlarning zamonaviy tilshunoslikning yuzaga kelishida manba bo‘ganligini asoslash masalasi ham bor. XX asr o‘zbek nazariy tilshunosligi taraqqiyotini A.G‘ulomov ilmiy qarashlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib maqolada 40-80-yillar o‘zbek milliy tilshunosligining ana shu vakili ilmiy merosi haqida imkon doirasida to‘liq ma‘lumot berishga, jiddiy ilmiy qarashlariga, ularga nisbatan bildirilgan mulohazalarga munosabat bildirishga, tahlilga tortishga harakat qildik.

## REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 "On measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language" // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2019 No PP-4479 "On the celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan" On State Language "///" Ma'rifat "newspaper. Tashkent, October 5, 2019. - №77.
3. Abdurahmonov F., ShukurovSh. Historical grammar of the Uzbek language. Tashkent: Teacher, 1973.
4. Djalolova L. Linguistic research of Abdullah Qadiri's novel "The Past": Philol. Ph.D. diss. rework. - Tashkent, 2007.
5. Qurbonova M. Fitratningtilshunoslikmerosi: Filol. Ph.D. diss. rework. Tashkent, 1993.
6. Toychiboev B. Historical numbers. –Guliston: Ziyo, 2011. - P. 29–39.
7. Toychiboev B. Fitrat is a linguist. - Tashkent, 1995.
8. Tog'ae'v T. AshuraliZohiriyvauningtilshunoslikmerosi: Ph.D. diss. rework. Tashkent, 2005.
9. AK Borovkoveski as a researcher of Uzbek language dictionaries // Problems of Uzbek language history. - Tashkent: Fan, 1977.
10. Chorjeva Z. Linguistic, spiritual and stylistic features of the letters in Abdullah Qadiri's novel "The Past": Ph.D. diss. rework. - Tashkent, 2006.